**XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 31-iyul VII-13-108-6-0-K/25 Namangan viloyati

**Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil ikkinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 30-iyuldagi 01/10-988-sonli taqdimnomasi hamda Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari M.Abdullayevning hisoboti asosida Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil ikkinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, viloyat hokimligining Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil ikkinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan ilovaga muvofiq, 21 464 278,0 (yigirma bir milliard to‘rt yuz oltmish to‘rt million ikki yuz yetmish sakkiz) ming so‘m mablag‘lar yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5084-sonli qaroriga asosan, “Qumtepa” kichik sanoat zonasi yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun mablag‘ ajratilganligi, obyekt qiymati 1 487,5 mln.so‘mni tashkil etganligi hamda joriy yilning 1-yanvar holatiga buyurtmachi tomonidan qurilish-ta’mirlash ishlari va loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun 1 035,7 mln.so‘m moliyalashtirib berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5084-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg‘armasining qoldiq mablag‘lari hisobidan “Qumtepa” kichik sanoat zonasi yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasiga 373,0 (uch yuz yetmish uch) million so‘m mablag‘ yo‘naltirilsin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasiga taqdim etish;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali sarflanishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni viloyat mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rish ta’minlansin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev)ga budjet xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.To‘rayev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (B.Xodjiyev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 31-iyuldagi
VII-13-108-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Namangan viloyatining viloyat budjeti daromadlarining 2025-yil ikkinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishi hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar**

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| 1 | Namangan viloyati hokimligi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 11-martdagi PQ-92-sonli qarori asosan viloyatdagi 788 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi “Keksalar maslahati” guruhlarining rag‘batlantirish uchun | 565 500,0 |
| 2 | Namangan viloyati hokimligi | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-apreldagi 239-F-sonli farmoyishiga asosan “Ayollar daftari”ga kiritilgan va ehtiyojmand xotin-qizlarning Toshkent viloyatidagi dam olish maskanlariga yuborish bilan bog‘liq xarajatlari uchun | 170 000,0 |
| 3 | Namangan shahar mahalliy budjeti | Davlatobod tumani 1-sonli musiqa maktabi binosini tom va ichki qismini ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlari uchun | 600 000,0 |
| 4 | O‘zbekiston kurash federatsiyasi Namangan viloyati bo‘limi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son qaroriga asosan O‘zbekiston kurash federatsiyasi hududiy viloyat bo‘limi xodimlarining 2025 yil saqlash xarajatlari uchun | 616 000,0 |
| 5 | Namangan viloyat futbol assotsiatsiyasi | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son farmoniga asosan hududiy futbol assotsiatsiyani | 403 000,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| | | 2025-yil saqlash xarajatlari uchun | |
| 6 | “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi 831-sonli qaroriga asosan “Axsikent” arxeologiya merosi ob’ektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasining 2025-yil saqlash xarajatlari uchun | 500 000,0 |
| 7 | Namangan viloyati Kardiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi | Tibbiyot markazini moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun jihozlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlari uchun | 500 000,0 |
| 8 | Viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l xarakati xavfsizligi boshqarmasi | Namangan viloyati bo‘yicha 12 joylarga svetafor ob’ektlari qurish va 64 xalqaro “Gullar festivali”ga puxta tayyorgarlik uchun 10 tonna yo‘l bo‘yoqlari xarid qilish uchun | 500 000,0 |
| 9 | Namangan shahar mahalliy budjeti | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4- avgustdagi PQ-5209-sonli qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 18-apreldagi “2025-yilgi “Namangan 64-xalqaro gullar festivali”ga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 197-6-0-Q/25-sonli qaroriga asosan Davlatobod tumani markaziy ko‘cha va hiyobonlariga gul va butalar ekish ishlaridan yuzaga kelgan qarzorliklarni bartaraf etish uchun | 2 500 000,0 |
| 10 | Viloyat hokimligi qoshidagi Markaziy” o‘yingoh binolari va inshootlaridan foydalanish direksiyasi davlat unitar korxonasi | Viloyatda sportning futbol turini rivolantirish maqsadida, “Markaziy” o‘yingoh binolari va inshootlaridan foydalanish direksiyasi davlat unitar korxonasi hamda uyingohni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlar uchun | 730 000,0 |
| 11 | Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DM | Namangan shahar Sardoba hududidagi “Osma ko‘prik” qurish xarajatlari uchun | 2 000 000,0 |
| 12 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | Viloyat xokimligi moddiy texnika bazasini rivojlantirish maqsadida viloyat xokimligiga qarashli maxsus avtosaroyni ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun | 1 000 000,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| 13 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | Namangan shahridagi “Qabullar uyi”da ichki issiqlik tizimini ta’mirlash xarajatlari uchun (Maxsus topshiriqqa asosan) | 1 500 000,0 |
| 14 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | Namangan shahridagi “Qabullar uyi”da 2 ta vertolyot qo‘nish maydonlari qurilishi bilan bog‘liq xarajatlar uchun (Maxsus topshiriqqa asosan) | 500 000,0 |
| 15 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-fevral - 1-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifining 9-sonli majlis bayoni va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-apreldagi 261-sonli karoriga asosan Navbaxor futbol klubining zaxira stadioni binosini mukammal qayta qurish va fitnes klub qurilishi bilan bog‘liq xarajatlar uchun | 515 000,0 |
| 16 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | Viloyat Ichki ishlar boshqarmasida “Vaziyatlar markazi”ni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar | 1 500 000,0 |
| 17 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi “Hududlarda yoshlarga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘rganish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan “it-shaharcha”lar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-178-sonli qarorlariga asosan Pop tumanida IT-Park qurish va jixozlash xarajatlari uchun | 775 000,0 |
| 18 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-martdagi PQ-160-son qaroriga asosan “Yangi O‘zbekiston bog‘i”ni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar uchun | 4 000 000,0 |
| 19 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | Namangan tumani Qumqo‘rg‘on MFY xududida joylashgan kasb-xunar kollejini Andijon tibbiyot unversiteti filialiga moslashtirish xarajatlari uchun | 1 000 000,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| 20 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | Uychi tumani “Ovchibuloq” MFY uchun ma’muriy bino qurish ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorlik uchun | 21 700,0 |
| 21 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Mingbuloq tumani Qo‘g‘aliko‘l MFYda 8-sonli umumta’lim maktabni mukammal ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 138 000,0 |
| 22 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Uchqo‘rg‘on tuman Dehqonobod MFY Jalolobod OShP rekonsruksiya qilish ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 269 000,0 |
| 23 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod mahalla” dasturi doirasida Namangan shahar G‘uncha MFYdagi 44-maktabga sport zal qurish ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 22 000,0 |
| 24 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Chortoq tuman Qorabog‘ MFYdagi Qorabog‘ OShPni mukammal ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 63 000,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| 25 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Uchqo‘rg‘on tuman Yangiobod MFYdagi TTYo bo‘limini rekonstruksiya qilish ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 110 000,0 |
| 26 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Mingbuloq tuman Beshserka MFY 29-sonli maktabni kapital ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 131 000,0 |
| 27 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Kosonsoy tuman Obod MFY 49-sonli maktab filiali kapital ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 106 000,0 |
| 28 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Chortoq tumani Qorabog‘ MFY 15-sonli maktab kapital ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 268 000,0 |
| 29 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” | 43 000,0 |

| № | Mablag‘ oluvchilar nomi | Tadbirlar nomi | Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m) |
|---|---|---|---|
| | | dasturi doirasida Pop tumani Qo‘shtepa MFYdagi 47-sonli maktabni mukammal ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | |
| 30 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Uchqo‘rg‘on tuman Bo‘ston MFYdagi 35-sonli maktabni rekonstruksiya kilish ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 150 000,0 |
| 31 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Uchqo‘rg‘on tuman Yangiobod MFYdagi 23-sonli maktabni mukammal ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 90 514,0 |
| 32 | Namangan viloyati hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5386-son Farmoni hamda 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son qarori ijrosiga muvofiq, Namangan viloyatida “Obod qishloq” dasturi doirasida Uchqo‘rg‘on tuman Dehqonobod MFY 6-sonli maktab kapital ta’mirlash ob’ektida bajarilgan ishlardan bo‘lgan kreditor qarzdorliklar uchun | 177 564,0 |
| | **J A M I** | | **21 464 278,0** |